



ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING AHAMIYATI

Shahnoza Muhammadiyeva

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Til va adabiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakili Erkin Vohidov she'riyatining o'ziga xosligi hamda ularda ta'sirchanlikni yanada oshirishga xizmat qilgan badiiy san'atlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, ohangdorlik, irsoli masal, talmeh.

Erkin Vohidov she'riyati o'zining jozibadorligi, ohangdorligi, bir o'qishdayoq insonning xotirasiga muhrlanib qolishi bilan ajralib turadi. Shoir adabiyotimizda she'rlarining rang-barangligi, so'zlarining soddaligi, xalqonaligi, samimiyligi va hayotiyliigi bilan o'ziga maftun qiladi. Yozuvchining vatan madhi, ona tili, umr, tabiat, yoshlik, do'stlik, muhabbat va boshqa mavzularda yozgan she'rlari talaygina. Ularning jozibasini oshirish uchun badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanilgan. Shu bois Erkin Vohidov she'rlarida badiiy san'atlarning qo'llanilishini o'rganish shoir poetikasini yanada anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodida irsoli masal san'atining qo'llanilishi: **Irsoli masal**- she'rda maqol, matal, hikmatli so'zlarni muayyan maqsad bilan ishlatish usulidir.

Ko'yida men tosh boshimni,
Urmagan ostona yo'q,
Elda bor shunday masal:
Jon chekmasang, jonona yo'q.

Shoirning "O'rtada begona yo'q" she'rini o'qir ekanmiz unda ishq, oshiqlik, dard chekish asosiy o'rinda tasvirlanganini kuzatamiz. Oshiqning dardli kechinmalarini ifodalash asnosida shoir baytlar mazmuniga go'zal san'atlarni joylaganini ko'ramiz. Lirik qahramon qanchalik iztirob chekmasin o'ziga taskin bo'luvchi "Jon chekmasang, jonona yo'q" hikmatli so'zdan mahorat bilan foydalangan. Shu she'rning keying baytida esa talmeh san'atini qo'llab, ishq dardini yanada ochiqqlab beradi. **Talmeh** ("nazar solmoq") she'rda tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asar qahramonlari, mashhur shaxslar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir.

Sevgi vodiysiga menga
Teng bo'lgay qaysi Qays?
Ko'nglim ochsam ochsam, ikki dunyo
Bu kabi afsona yo'q.



Sevgi bir vodi bo'lsa, bu vodiya unga hech qaysi Qays (Majnun) tenglasha olmaydi. Uning ishq shu darajada kuchliki, agar kimgadir ko'nglini ochadigan bo'lsa, ikki dunyoda ham bunaqa afsona yo'qligini aytib, ishqini naqadar kuchli ekanligini aytib o'tadi. Ishq va oshiqlik mavzusi ijodkorning har bir she'rida bir-biridan qolishmaydi. Masalan, "Sevgi shunday navbahorki..." she'rida har bir baytida tazod san'atidan foydalanishi, baytlarning badiiy mohiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Sevgi shunday navbahorki,
U tikandin gul qilur,
Toshga jon-u til bag'ishlab,
Zog'ni ham bulbul qilur

Baytda qo'llanilgan tikan va gul, zog' va bulbul so'zlari tazod san'atini yuzaga chiqargan. **Tazod** (arab. — zidlash) — badiiy tasvirning ta'sirchan va keng qo'llanadigan vositalaridan. Nasrda ham, nazmda ham uchraydi. O'zaro zid tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki iboralarni ishlatishda ko'zga tashlanadi. Erkin Vohidov hech bir she'rini shunchaki yozmaydi, balki uning har bir baytida hayotning muhim masalalarini, inson bilan bog'liq haqiqatni yangi-yangi qirralarini kashf qiladi. Uning o'ziga xos milliylik, samimiylik balqib turgan ijodiy kashfiyotlari tilni betakror birliklar, tasviriy ifodalar bilan boyitishga, xalq ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladi.ⁱ

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordir tushuncha,
Uch bu so'z yondosh bo'lur:
Mohir-u mehr-u mahorat,
Olim-u ilm-u amal,
Oshiq-u ishq-u mashaqqat,
Shoir-u she'r-u shuur.

Erkin Vohidovning ushbu baytida mohir-u mehr-u mahorat, olim-u ilm-u amal, oshiq-u ishq-u mashaqqat, shoir-u she'r-u shuur so'zlarini badiiy ohangdorlik bilan bir tizimga soladi. Shu baytning o'zida ikki : ishtiyoq, tadid badiiy san'atidan ustalik bilan foydalanadi. **Ishtiyoq** (arabcha — "tuzilish", "yasalish") — mumtoz adabiyotda bir xil o'zakdan paydo bo'lgan, ammo turli ma'no va shaklga ega so'zlarni bir baytda mahorat bilan qo'llash san'atidir. Bu san'at she'rga alohida musiqiylik, ohangdorlik va ma'no teranligini bag'ishlaydi. Ushbu baytdagi shoir-u she'r-u shuur so'zlari asosdosh so'zlar hisoblanib, badiiy bo'yondorlikni oshirishga xizmat qilgan. **Tadid**- fikriy rivoj, ketma-ketlik, tadrijiylik. U grammatik qurilmalarning bir xil shaklidan ketma-ket foydalanish orqali ham yuzaga chiqishi mumkin, Baytdagi mohir-u mehr-u mahorat, olim-u ilm-u amal, oshiq-u ishq-u mashaqqat, shoir-u she'r-u



shuur soʻzlari darajaviylikni yanada oshirib borgan.

Erkin Vohidov XX asr oʻzbek adabiyotida sheʼriyatni milliy ong, vijdon va jasorat bilan boyitgan ijodkor sifatida alohida oʻrin egallaydi. U adabiyotga faqat badiiy yangilik emas, balki maʼnaviy masʼuliyat olib kirgan ijodkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.: Oʻqituvchi.,1979
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik terminlar lugʻati. Toshkent. “Fan” 2010
3. Vohidov E. Tabassum . Toshkent “Yangi asr avlodi”-2014

ⁱ Adizova Nilufar Istamovna. “Erkin Vohidov-inson kechmishlarining mohir kuychisi”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 454-460